

Date: 21st January-2026

VAKSINATSIYA-SOG'LOM JAMIYAT KAFOLATI

Abdullayeva Gulsanam O'tkirjon qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti 208-guruh talabasi

To'rayeva Umida Shakar qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti 211-guruh talabasi

Abduxalilov Asilbek Toxir o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash ishi fakulteti 211-guruh talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda ko'plab ota onalar ayrim noto'g'ri malumotlarga tayanib, farzandlarining emlanishiga qarshilik qilishmoqda va shu sababli chaqaloqlar oddiy va bitta vaksina orqali bartaraf etiladigan ko'plab kasalliklarga chalinmoqdalar va hatto o'lim holatlari kuzatilmoqda

Kalit so'zlar: Vaksina, emlash, polimiyelit, qizamiq, chechak, inyeksiya, immunitet, vaktsinatsiya, allergiya

Kirish

Vaksina bu organizmga yuboriladigan, kasallik qo'zg'atuvchisining o'ldirilgan yoki kuchsizlantirilgan shakldagi dozasi. Vaksina yuborilgach, bizning immun tizimimiz kuchsiz kasallik bilan kurashadi va hujayralarimizda o'sha kasallikka nisbatan tolerantlik, ya'ni chidamlilik rivojlanadi. Shundan so'ng, vaktsinatsiyalangan ya'ni emlangan insonga bu kasallik yugsa, u juda yengil va bazi hollarda sezdirmasdan, belgi yuzaga chiqarmasdan o'tib ketadi.

Vaksina-bu insoniyat tomonidan o'ylab topilgan eng yaxshi kashfiyotlardan biridir. Emlash ilk marotaba 1801-yilda olim Edward Jenner tomonidan chechak kasalligi ustida o'tkazilgan. Olim o'z tadqiqotlarini ilmiy maqola orqali e'lon qiladi. Olim buni vaksina" deb ataydi. Vaksina so'zi lotin tilidagi "vacca" ya'ni sigir so'zidan olingan. Bunday nomlanishi sababi insoniyat ming yillardan beri kurashib kelayotgan va shu vaqtga qadar davosiz deb hisoblangan, eng ko'p insonlar umriga zomin bo'lgan kasallik - chechak kasalligi edi. Chechak kasalligiga chalingan bemorlarda isitma, qayd qilish, kuchli bosh og'rig'i kuzatilgan va tana bo'ylab daxshatli yiringli toshmalar toshgan. Ayrim holatlarda kasallik ko'rlikka ham sabab bo'lgan. Kasallikka chalinishning 2-haftasidayoq bemorlarning 30%i halok bo'lgan. Ular orasida Fransiya qiroli Luiz 15, Angliya qirolicasi Merin 2 va Rossiya qiroli Pyotr 2 ham bor edi. Kasallikdan omon qolish imkoniyati juda kam ehtimolga ega edi. Omon qolganlarda esa tanasi bo'ylab chuqur iz va chandiqlar qolgan. Keyinchalik odamlar ayrim toifadagi kishilarga bu virus yuqmasligini aniqlashgan, bular - chorvadorlar va cho'ponlar edi. Chunki hayvonlarda odamlarda uchraydigan chechak kasalligining qarindoshi - sigir chechak uchrardi. Chechakning bu turi odamga yuqqanida yengil simptom va oz toshmalar bilan o'tib ketgan. Buni bilgan va chechakka chalinishdan qo'rqqan odamlar kasaldan sog'ayib ketgan odamlarning yaralarini siqib, o'z terilarini kesib surtib olganlar. Shu tariqa emlash paydo bo'lgan va xalqlar tomonidan har



Date: 21st January-2026

hil usullari o'ylab topilgan. 1801-yilda esa Edward Jenner buni ilk bor ilmiy yo'l bilan isbotlab bergan. Shundan so'ng dunyo bo'ylab chechak virusiga qarshi emlashlar boshlanib ketadi. 20-asrda chechak virusidan vafot etganlar soni 500million deb tahmin qilinadi. Ohir oqibat 1980-yilda Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti kasallik butunlar chekingani va tugatilganini e'lon qiladi.

Vaksina davlat tomonidan nazorat qilinadi. Bizning O'zbekiston Respublikasida 2008-yil noyabrdan kuchga kirgan «O'zbekiston Res-publikasida yuqumli kasalliklarning immunoprofilaktikasini tashkil qilish va o'tkazish to'g'risidagi Sanitariya qoida va me'yorlari ishlab (SanPiN № 0239-08. Tashkent-2008) chiqilgan (12.1-jadval)

Yuqumli kasalliklarga qarshi immunizatsiya qilish davlatimiz to-monidan olib borilayotgan barkamol avlodni tarbiyalash siyosati ning bir ko'rinishidir. Shuning uchun vaksinatsiya qilish har bir oila uchun oson va muammolarsiz va albatta bepul bo'lishi shart.

Chaqaloq tug'ruqxonada tug'ilishi bilan bolaga «Bolalar va o'smir lar shaxsiy daftarchasi olib boriladi. Bu daftarchada majburiy im-munizatsiya qilish vaqtlari ko'rsatiladi. Chaqaloqlar tug'ilgan ilk kundanoq quyidagi jadval asosida vaksina bilan emlanadilar.

№	Emlash vaqti	Emlash turi
1	1 sutkada	VGB-1
2	2-5 kun	BCJ-1
3	2 oylik	OPV-1; Rota-1 (rotavirus vaksinasi og'iz orqali) Penta-1 (AKDS-1, VGB-2, XIB-1); Pnevmo-1
4	3 oylik	OPV-2, Rota-2 (rotavirus vaksinasi og'iz orqali) Penta-2 (AKDS-2, VGB-3, XIB-2); Pnevmo-2
5	4 oylik	OPV -3, Penta -3 (AKDS-3, VGB-4, XIB-3); IPV
6	9 oylik	IPV-2
7	12 oylik	KPK -1; Pnevmo -3
8	16 oylik	OPV - 4; AKDS-4
9	6 yosh	KPK-2
10	7 yosh	OPV -5; ADS-M-5
11	9 yosh	VPCh
12	16 yosh	ADS-M-6



Date: 21st January-2026

VGB - gepatit B ga qarshi vaksina
OPV - poliomiolitga qarshi vaksina
BCJ silga qarshi vaksina
Rota - rotavirus infeksiyaga qarshi - virusli diareyaga qarshi
KPK - qizamiq-parotit-qizilchaga qarshi
AKDS - difteriya-ko'k'yo'tal-qoqsholga qarshi
Pentavalent - difteriya-ko'k'yo'tal-qoqshol-gepatit B-xib infeksiyaga qarshi
ADS-M - difteriya-qoqsholga qarshi vaksina
Pnevmo - pnevmokokk infeksiyaga qarshi
VPCh - odam papilloma virusiga qarshi

Emlash orqali ko'plab kasalliklar, jumladan: falajlikka olib kelishi mumkin bo'lgan poliomiolit; miya shishi va ko'rlikka sabab bo'lishi mumkin bo'lgan qizamiq; mushaklarning og'riqli qisqarishi, ovqatlanish qiyinlashishi va nafas olish muammolari, ayniqsa yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan qoqshol kabi og'ir kasalliklarning oldi olish mumkin. Hozirgi kunga kelib olimlar saratonning ayrim turlariga qarshi ham vaksinalar ishlab chiqishgan.

Vaksinatsiya qilish orqali qizamiq kasalligining ham oldini olish mumkin. 2017-yilda qizamiq kasalligi tugatilgan davlatlar orasiga O'zbekiston ham qo'shilgan edi. Ammo shunga qaramasdan, 2023-yilda O'zbekistonda 735 ta qizamiq holatlari qayd etildi. Faqatgina O'zbekistonda emas, balki boshqa davlatlarda ham kasallik ko'rsatkichi 2022yilgiga nisbatan ortishi kuzatilgan. Buning birinchi sababi COVID-19 sababli bolalar o'z vaqtida vaksinatsiya qilinmagani bo'lsa, 2-sababi ota onalar bolalarining emlanishiga qarshilik qilishgan.

75 yildan ortiq vaqt davomida olimlar butun dunyo bo'ylab emlangan yuz millionlab bolalarning salomatligi hamda rivojlanishini tahlil qildilar. Ushbu yillar davomida millionlab emlangan bolalarni o'rganish natijasida emlash va autizm, autoimmun kasalliklar yoki boshqa uzoq muddatli sog'liq buzilishlari o'rtasida aniq bir bog'liqlik mavjudligi qayd etilmadi. Shuningdek, emlash boshqa yuqumli kasalliklarni yuqtirish xavfini oshirmasligi, bundan tashqari, vaksinalar immunitet tizimiga hatto maxsus emlanmagan viruslarga qarshi kurashishda yordam berishi mumkinligi isbotlandi. Ayrim holatlarda vaksina yuborilgandan so'ng bolalarda yengil va xavfli bo'lmagan nojo'ya ta'sirlar kuzatiladi. Masalan, inyeksiya qilingan joyda shish paydo bo'lishi mumkin, yoki kam hollarda anafilaksiya (allergik reaksiya) kabi og'irroq asoratlar uchraydi. Masalan, AKDS vaktsinasi yuborilgandan so'ng anafilaktik reaksiya paydo bo'lish ehtimoli milliondan bir holatga teng. Vaksinatsiya bilan bog'liq har qanday xavflarni mavjud vaksinalar himoya qiladigan kasalliklarning paydo bo'lish xavfi bilan taqqoslash kerak. Misol uchun agar emlanmagan chaqaloq ko'k'yo'tal bilan kasallansa, unda o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan og'ir asoratlarning rivojlanish ehtimoli 20 dan 1 ni tashkil etadi. Agar emlanmagan bola qizamiq bilan kasallansa, uning o'lish ehtimoli 500 dan 1 ga teng. Hatto ayrim aholi guruhlarida emlanmagan bolaning qizamiqdan vafot etish



Date: 21st January-2026



xavfi ancha yuqori. Bu shuni anglatadiki, kasallik keltirib chiqaradigan asoratlar xavfi vaksinalar keltirib chiqaradigan asoratlar xavfidan bir necha baravar yuqoridir. Bundan kelib chiqadiki, vaksinatsiya aholi salomatligi va bola hayoti uchun xavfsiz va samarali vositadir. Shunga qaramasdan ayrim ota-onalar vaksinalar farma kompaniyalarining pul ishlash usuli deb qaraydilar va farzandlarini emlashdan bosh tortadilar va o'zlari sezmagani va istamagan holatda farzandlari hayotini va kelajagini havf ostiga qo'yadilar. Emlash orqali hatto Gepatit B bilan kasallangan onadan tug'ilgan bola ham sog'lom rivojlanishi mumkin. Buning uchun shifokorlar tug'ilgan chaqaloqni 5soat ichida emlashlari kerak bo'ladi.

Ayrim onalar orasida vaksinalar tarkibida aluminiy bor ekanligi va uning organizm uchun xavfli ekanligi to'g'risida turli mish-mishlar yuradi. Ammo jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra vaksina tarkibidagi Aluminiy elementi ad'yuvant, ya'ni immunitet tizimi vaksinaga javob berishga yordam beradigan birikma sifatida 1926-yildan beri vaksinalar tarkibiga qo'shib kelinadi. Vaksina tarkibidagi alyuminiy shish kabi mahalliy qisqa muddatli reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lsa-da, tadqiqotlar tez-tez uchraydigan, og'ir yoki uzoq muddatli nojo'ya ta'sirlar, shu jumladan neyrotoksikologik ta'sirlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan xavotirli holatlarni aniqlamadi.

Vaksinalar qo'l va oyoq sohalariga yuboriladi. Bu ularning turiga va emlanayotgan shaxsning yoshiga bog'liq holatda amalga oshiriladi.

Vaksina yuborishning bir necha turlari mavjud:

Teriga va teri ichiga ineksiya qilish – silga qarshi BSJ (*Bacillus Calmette-Guerin*), tirik qurutilgan tulyaremiya va suvchechakka qarshi vaksina kabilar. Boshqa turdagi vaksina preparatlari bu usul bilan o'tkazilmaydi

Peroral (og'iz orqali) yutish yo'li bilan enteroviruslarga qarshi vaksinalar yuboriladi, masalan tirik poliomiyelit (OPV) virusiga qarshi vaksina.

Mushak orasiga – eng ko'p tarqalgan, samarali emlash yo'li. Bunda yuborilgan vaksina tez so'rilib, immunitet hosil bo'lishi va preparatga qarshi reaksiyalar bermaydi. Chunki mushaklar teridan ancha ichkarida bo'lib, qon tomirlar bilan boy bo'lgani sababli, immun tizimi vaksina haqida qisqa muddatda xabar topadi.

Vaksina yuborish texnikasi va joyi: 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda son mushagining uchdan bir qismi o'rtasiga, ichki old sohasiga perpendikulyar (90 C) holatda ineksiya qilinadi. 2 yoshdan katta bolalarda yelka mushagining o'rta qismiga, yon tomondan ineksiya qilinadi.

Vaksina olishga bir necha kun qolganda yoki emlashdan keyingi ilk kunlari bolaga yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini berish mumkin emas. Agar kichkintoy ko'krak suti bilan oziqlantirilsa, ona o'z ratsioniga yangi yeguliklarni kiritmasliklari tavsiya etiladi.

Vaksina qilish ba'zi holatlarda mumkin emas yoki ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Bunday hollarga quyidagilar kiradi:

Allergik reaksiyalar: agar bolada oldingi vaksina tarkibidagi biron bir moddaga allergiya bo'lsa, vaksina berishdan saqlanish kerak.

Date: 21st January-2026

Salomatlik bilan bog'liq ayrim holatlar: Immun tizimi zaif bo'lgan bolalar yoki ba'zi surunkali kasalliklari bo'lgan bolalar uchun vaksina qabul qilishda ehtiyotkorlik kerak.

Shu bilan birga, har bir vaksina uchun alohida tavsiyalar va qoidalar mavjud, shuning uchun vaksina olishdan oldin pediater bilan maslahatlashish muhimdir. Ular bolaning individual holatini hisobga olib, kerakli tavsiyalarni bera olishadi.

Aytish joizki, shu kunga qadar vaksinalarning inson hayoti va salomatligiga zararli tomonlari qayd etilmagan va buning ustida olimlarimiz vaksinalar qo'llanilishi boshlangan kundanoq turli izlanishlar olib bormoqdalar. Vaksinalar sababli qadimda davosiz va o'lim havfi yuqori bo'lgan juda ko'plab kasalliklarning oldini olishga erishildi. Sog' tanda - sog'lom aql deydi dono xalqimiz, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning bilim olishlari va yurtga xizmat qiladigan yetuk shaxs bo'lib rivojlanishlari uchun, avvalo ularning sog'ligini himoya qilishimiz va taminlashimiz zarur! Bu har bir ota-ona, har bir tibbiy hodimning oliy burchidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mikrobiologiya Virusologiya va Immunologiya - I.R.Muhammedov; Sh.R.Aliyev; J.A.Rizayev; Sh.A.Xo'jayeva - Toshkent, 2019-yil
2. Bolalarda immunoprofilaktika - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi Samarqand davlat tibbiyot instituti - Samarqand -2021
3. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/stories/vaksinalar-haqida-kop-beriladigan-savollar>
4. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/bolalarga-vaksina-qilish-qachon-mumkin-yoki-mumkin-emas>

